

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR
UYUSHMASI

BAXTIYOR GENJAMUROD

YURAKNING O'RTLII OSMONI

She'rlar va doston

TOSHKENT
«ADABIYOT»
2021

Loyiha rahbari
Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri

Tarjimon
Rustam MUSURMON,
Qoraqalpog'iston xalq shoiri

Nashr uchun mas'ul
Mansur JUMAYEV

Taniqli qoraqalpoq shoiri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Baxtiyor Genjamurodning she'rlari markaziy matbuot nashrlarida muntazam chop etib kelinadi. Shoirning "O'kizdaryo bitiklari" nomli she'rlar va dostonlar kitobining o'zbekcha nashri ma'lum va mashhur.

"Yurakning o'rtli osmoni" nomli ushbu kitobga shoirning yangi she'rlaridan tarjimalar kiritildi.

ISBN 978-9943-7107-0-2

© B. Genjamurod, 2021
© «Adabiyot», 2021

TANIMSAN, QONIMSAN, JONIMSAN, VATAN!

Turkum

XALQIMNING KAMOLI

Yalang oyog'imga sanchilsa tikan,
Tan og'rib, qon ko'pchib, ingranadi jon.
O'zni sendan o'zga sanamadim men,
Tanimsan, qonimsan, jonimsan, Vatan!

Tan – ko'zga ko'ringan savlatim mening,
Qonim-chi, jonimga, ruhimga makon.
Maqtashga so'z yetmas vasfingni sening,
Tanam ichindagi tanimsan, Vatan!

Million yil sahroda guldek ochilgan,
Sir, Surxon, Zarafshon, O'kuzdaryosan.
Yuragimdan vujud ichra sanchilgan
Qonim ichindagi qonimsan, Vatan!

Jon – Alloh ne'mati: biz uchun iqbol,
Erkin ruh – insonni yuksaltirgan shon.
Xalqimning kamoli, baxti Istiqlol,
Jonim ichindagi jonimsan, Vatan!

TILAK

Vatanni qo'shiqqa sig'dirmoq... Yo'q! Yo'q!
Navolarga sig'mas sarkash tuyg'ular.
Onang boqqanini qo'shiqqa solmoq –
Onangni maqtamoq erish tuyular.

Umrin o'tar Kun va Tunning orasi –
Sening shapalog'ing... Sening quchog'ing.
Onajon, sen mening ko'zim qorasi,
Onajon, o'zingga kelar o'xshagim.

BIR ONANING BOLALARIGA

Umr – bitta,
ajal – sonmingta.
Sevish – bitta,
sevilish – bitta.
Taqdir – qishda
sovqotib to'ngsam,
isintirar quyoshim – bitta.

Baxt – bitta,
Muhabbat – bitta,
Ko'ksimdagi yuragim – yolg'iz.
Bu dunyoda Baxtiyor – bitta,
Meni tuqqan onam ham – yolg'iz.
Onam – bitta,
Ona Yer – bitta,
Aylanadi olamda yolg'iz.
Bu dunyoda shoir ham bitta,
Qo'shiq yozgan qalam ham yolg'iz...

BIY OG'A

Tangrim bizga ortiq dunyo bermadi,
Ming bora bisyor ishq berdi, biy og'a.
Sog'inch shamshirini Laylim sermadi,
To'ralik to'ningni bugun kiy, og'a.

Oh, yurak-bag'rimni tilmoqda olmos –
Bu Xudoydan bizga kelgan siy, og'a.
“Kel”, deb chaqirar yor, bormasam bo'lmas,
Ko'zlarim tor bo'ldi, Nukus – uy, og'a...

Alloh ne'matidir sevgi-muhabbat,
Bizga visol yo'lin ko'rsat, biy og'a.
O'chsin yo o'rlasin yurakdagi o't,
Bo'zadan to'ldirib yana quy, og'a...

DO'ST UCHUN

Sevimli oyim qizlar, meni ayamang!
Do'stlikni muhabbatdan baland qo'yaman.
Yordan jafo ko'rdim, vafo ko'rmadim,
Ayting, bu dog'ni men qanday yuvaman?

Sevimli gul bekalar, meni ayamang,
Do'stlikni ishqingizdan baland qo'yaman.
Zindonband etdingiz menga may quyib,
Alpomishdek chohga tushib kuyaman...

Sevimli xonimlar, meni ayamang,
Do'stlikni bo'sangizdan baland qo'yaman.
Yor deb o'zni fido etmasman endi,
Do'stga jonim qurbon – jonim “so'yaman”...

QALBIMDA NE SIR BOR

Janub tomonlarga saf tortib uchar,
“Qurey-qurey” qilib mungli turnalar.
Ketmoqda... Cho'llardan, tog'lardan oshar,
Kuz karvoni ko'chdi... Yurak tirnalar.

Qizil jiydalarga qirovlar tushdi,
Pechak gullar jon deb tolga chirmalar.
Jiydali Boysunda jiydalar pishdi:
Uzatilgan qizdek yig'lar turnalar.

Ming marta o'qilgan sevgi kitobi –
Parvoz qilgan qushlar suvsab, tin olar.
Qizilqum son million dardim yutadi,
Qorateranimda sog'inch, sir qolar...

Nukusdan Qarshi va Termizga qadar
Kuz qo'shig'in tinglab uchar turnalar.
Qalbimda bir sir bor... Kim dardim olar,
Qoraqalpoq – Surxon – Qashqadaryolar?..

MING MANZILDAN UZOQ

“Ming manzildan uzo-o-oq...” Makrit bog‘idan
Tushimga kiradi har tun bir uzum...
Uzumning suvini – mayni sog‘indim,
Qalbmida oq kaptar uchmoqda. U – kim?..

Qarshi cho‘lidan oq bulutlar kelar
Qora tovga – gulsiz, uryon toshlarga.
Ukuzdaryoda tong... go‘yo sel yog‘ar,
U – tilla uzukning ko‘z yoshlarimi?

Chap qo‘limda qadah, o‘ng qo‘lda sharob,
O‘z-o‘zimga qadah so‘zi aytarman.
Oq bulutdan oppoq kaptarni so‘rab,
Mast bo‘lib tunlardan tongga qaytarman.

ODAM ATO VA MOMO HAVO QISSASI

Tangrim eng birinchi So'zni yaratdi...
So'ng cheksiz olamni, sayyora – Yerni,
Dunyoga ilohiy nurni taratdi.
Yerga tirikchilik berdi.

Qirq yil g'am buyurdi –
Yog'dirdi qorni,
Qirq yil baxt yog'dirdi –
Sel bo'ldi jahon.
Qayg'u va shodlikning tuprog'in qordi,
Vujudni yaratdi, ato etdi jon.

Tangrim unga “Odam” deya ot qo'ydi...
Yerga podshohlikning huquqin berdi.

Cho'llarning, suvlarning podshosi – Odam!
To'qaylar, tog'larning podshosi – Odam!
Baliqlar, qushlarning podshosi – Odam!
Maxluqlar, jonzotlar podshosi – Odam!

Yuragi negadir intizor edi,
Negadir kimnidir sog'inar edi...

Alloh – bilguvchidir, bildi bu sirni,
Odamni ilohiy uyquga soldi.

Uning manglayiga yozdi Taqdirni,
Bir juft qobirg'asin sindirib oldi...

Jigari, yuragidan kesib Odamning,
Bo'taka, buyragidan kesib Odamning,
Tomiri, o'pkasidan kesib Odamning,
Aqli va esidan kesib Odamning,

Nur-la yelimladi juft qobirg'aga,
Jon ham ato etdi Tangri taolo.

Xudoning mehriga ming bora shukr!

Silkinib uyqudan uyg'ondi Odam,
Oyparini ko'rdi sochi yoyilgan:
"Bu olam chiroyin, husn-u jilvasin –
Barchasin mujassam etgan o'zinda,
Tungi yulduzlarning sirli shu'lasin –
Barin jam aylagan maston ko'zinda,
Bu kim?.." bila olmay lol qoldi Odam.

Yuragi, jigari va o'pkasiga
Sanchildi ishq otli uch oltin igna... –
Suyib yashash! Kuyib yashash!
Kechirib yashash!

Yetti qat osmondan keldi bir Sado:
"Bul – Havo Ona!

Ul – Havo Ona!

Gul – Havo Ona!..”

“Qoshimga kel!..” dedi Havoga Odam,
Tovushi tog‘lardan oshib yangradi.
Biroq dunyoga u podshoh bo‘lsa ham,
Havoni qoshiga keltirolmadi.

“Kerak bo‘lgan senga, o‘zing kel bu yon!” –
Dedi go‘zal Havo suzilib ko‘zi...
Bilmay ko‘ndi Odam,
O‘shandan buyon
Er yalinib borar ayolga o‘zi...

Ajab, buyuk Tangri karomat etdi,
Odamdan yaratdi Havoning o‘zin.
Necha minglab yillar, asrlar o‘tdi...
Doim qiz yigitni, erkakni xotin
O‘z izmiga soldi, o‘tkazdi so‘zin.

Goh minglab chaqirim yursak ham yiroq,
Qo‘l telefonlardan beradi buyruq.
Yuragimda g‘azab o‘t olsa biroq
“Sen Odam emassan!” deb uraman do‘q.

– Sen Odam emassan! Ha, ha, Havosan!
Kechir, kislorodsan – toza havosan...
Oyimsan, quyoshimsan, yulduzimsan sen,
Hayotimsan, dardimga o‘zing davosan...

Mening yuragimsan – sen yagonasan...
Sen Odam emassan! Havo Onasan!

Erkakning oldida erkak tiz bukmas,
Jonlarim, siz uchun boshim egaman.
Bu yorug' dunyoda Siz Odam emas,
Havo bo'lganingiz uchun sevaman!

INSON

Sening tabiatning jumboqdir, Inson,
Olamda ne bo'lsa zuvalangda jam,
Barcha tabiiy fanlar xossasi, zotan,
Jismingda, joningda erur mujassam.

Teringning ostida yashar ashaddiy
Maxluqlar olamin bosh fermentlari.
Ulug' Mendeleyev davriy jadvalin
Reksion kimyoviy elementlari.

Jismingda o't va nur, antiqa tok bor,
Tortilish kuchlari, magnit maydoni.
Yuragingda – sirli Galaktikalar,
Farishta va iblis uchar aylanib.

Tangri yaratganda tuproqdan seni
Naqd qirq yil yomg'irda iylab, pishirgan.
Rosa bir kam qirq yil quyib g'am selin,
So'ngra bir yil shodlik nurin tushirgan.

Shuning uchun yovuzlikka moyilsan,
Gunoh ishga boshlar qadaming, yo'ling.
Shaytonning shahriga kirib, keyin sen,
Farishta bulog'ida yuvasan qo'ling.

Nurga qoldirmaysan yurakda o'rin,
O'zingni shoh bilib, o'zni o'ylaysan,

Aslo uzolmaysan Iblisning to'rin,
Qobildek Hobilni qonga bulaysan.

Nafsing ajdahosi katta og'izlik,
Ko'ksingda yuraging qattiqdir toshdan.
Ilondan ilonga yetmas yovuzlik –
Kim bo'lding Yusufni quduqqa tashlab?!

Aylanib Azozil qo'g'irchog'iga,
Toj kiymoq, mol-davlat uymoq istaysan.
G'animni do'st tutib, otajoningni –
Mirzo Ulug'bekday so'ymoq istaysan.

Bu axir o'tmish-ku deb o'zimizni
Yupatmoq bo'lamiz, o'zni aldaymiz.
Ming yil yiring bosgan qalb ko'zimizni
Tarix suvi bilan yuva olmaymiz.

Mardlik nishoni bor oltin tarixda –
Qutuldik qullikdan, qor-yomg'irlardan.
Istibdod tunidan chiqdik yoruqqa,
Ozod bo'ldik sovet fir'avnlardan.

Inson, sen shukrona qilmaysan, biroq
Or-nomus, vijdonni, erkni sotasan.
Hali nafsga qulsan, sen kesik quloq,
Mardlarning boshiga toshlar otasan...

To'yib yeb bo'lgach bu yurtning palovin,
Ko'zingni yog' bosib, oshqinlab ketding,
Ko'tarib terrorning qora yalovin
Mo'min musulmlarning boshiga yetding.

...El-u yurt tiladi Tangri Taolodan:
"Tug'ilsin ilohiy bir farzandimiz..."
Xalqqa mujda keldi Arshi A'lodan –
Sog' bo'lsin yurtparvar Prezidentimiz.

Odam Ota – Allohning erka bandasi,
Haq bizga o'zgacha mehr qaratgan.
Egam bizni sevar, buning belgisi –
Odamni o'ziga mengzab yaratgan.

O'q otish, portlatish – odam o'ldirish...
Qul Inson, dunyodan shumi umiding?
Gar bilsang, odamga qarab o'q uzish
Tangriga qarshi o'q uzish bilan teng.

Sening tabiati jumboqdir, Inson,
Dunyoda ne bo'lsa, zuvalangda bor.
Qalbingdan Iblisning lashkarin quvsang,
Quyoshdek nur sochar Mehr beg'ubor!

* * *

Qirq yil karvon tortdim oltin archali,
Cho'llardan tog'larga, tog'dan cho'llarga.
Qo'sh o'rkachli qirq nor yurib charchadi,
Xaridor topmadim qirq ming ellarda.

Oltin archani qirq qayiqqa ortdim,
Jannat izlab tushdim cheksiz ummonga.
Shamol turdi, oppoq yelkanlar tortdim,
"Behisht bizda", dedi sutday tumanlar.

Tumanlar ichida qoyalar ko'rdim,
Qora qushlar ko'rdim, oq tushi bordir.
Suv parilaridek suluvlar ko'rdim,
Guldan arqon eshar – jodusi dordir.

Oq tuman ortida chaqmoq chaqildi –
Qizil qilich o'ynab turdi yelkamda.
Ko'k bulut darg'azab nayzasin urdi –
Dil qoni sochardi oppoq yelkanga.

Qo'shqo'llab eshkakni eshaman: "Yo, Haq!"
Qirq qayiq qirq to'lqin qo'ynida – parday.
Boshimdan muzday ter quyilar buloq,
Oh urdim: "Yaratgan kuch-quvvat bergay!"

Eshkaklar qo'l bo'ldi, qo'llarim eshkak,
Bag'oyat xatarli bo'ldi safarim.

Qayiq qobirg'asin chaynadi tishlab,
Hasadning odamxo'r akulalari.

"Bukilmas iroda ber, – deb yodbordim, –
Yo'lga sol, aqlimdan ozmasdan halak,
Men axir baloning og'ziga bordim,
Qirq qayiqni asra, qirq chilton malak!"

Ko'k bulut yorilib oltin nur tushdi –
Oltin qadah tutgan malaklar ekan.
Qirq qultum tiriklik sharobin ichdim,
Bu ne'mat taqdirdan, falakdan ekan.

Oq bulutli baland tog'dek nurafshon,
Xizrga duch keldim, yetdim niyatga.
Ajab, to'rt tarafim – qibladir, chunon,
Qayta tug'ilgandek keldim hayotga.

Chatnab sinib ketar ulkan aysberglar,
Oq tog'lar, ehtimol, mozorim bo'lgay.
O'yladim, mozormas bu ko'ringan yer,
Molinga xaridor bozorim bo'lgay.

Malaklar qanoti oq yelkan bo'ldi,
Shukr, umidimga eltdi safarim.
Xizr qo'lin ochib, duolar qildi –
Menga yor bo'lgaysan, Parvardigorim!

* * *

Allohu Akbar, Allohu Akbar..
Menda eng Buyuk zot, eng Buyuk baxt bor.
Etiklarim eski, yamog'im toza.
Olis yulduzlardan keladi sabo:
"Qalbingning to'rida bir oltin taxt bor".

Allohu Akbar, Allohu Akbar..
Menda qisqa umr va qisqa vaqt bor.
Har bosgan qadamim – tosh yo'l, temiryo'l,
Gulga burkangan yo'l, goho ko'mir yo'l.
Ming shukr, bandaga atalgan baxt bor...

Allohu Akbar, Allohu Akbar..
Qalbimda qora yo'q, qalbimda oq bor.
Oq qog'oz – sajdagoh, qo'shig'im yurak.
Bundan ortiq dunyo menga ne kerak –
"Anal Haq!"
Birodar, ko'nghimda Haq bor.

Allohu Akbar, Allohu Akbar...

* * *

Bilib-bilmay qilgan gunohlarim bor,
Ko'nglim goho to'lin, gohida yarim.
Bir yog'im bog'-bo'ston, bir yog'im tik jar,
Menga yor bo'lgaysan, Parvardigorim.

Goh gulzor, gohida sirpanchiq yo'lim,
Farishta emasman, lekin bor orim.
Goho qaltiradi dovulda qo'lim...
Kechir, mehri cheksiz Parvardigorim.

Qumlarning ustiga so'qmog'im tushdi,
Ko'mmoqchi bo'ldilar Iblis alayna.
Quyunning shashtidan yulduzlar o'chdi
Va toshlar otildi ko'kdagi oyga.

Soqoli beliga tushgan bir qari
Tog'ning etagida saksovul yoqdi.
Bo'ri bolasining qornini yorib,
Lovullagan gulxan ichiga otdi.

Menga yor bo'lgaysan, Parvardigorim,
...Chirillab yig'lardi bola bo'ltiriq.
To'qsonni qoralab qolgan bu qari
Tindi norastani o'ldirib...

Ming qatla shukrona aytaman, Tangrim,
Chekkan nolalarim yetganligiga,
Goh qulab, goh turib intilgan umrim
To'rt fasl ichidan o'tganligiga.

Ming qatla shukrona aytaman, Tangrim!

IZLASH

I

Bir asr...

o'n asr...

ellik...

yuz asr...

Karvonim yuk tortar bellari tolib.

Topganlarim – jumboq, yo'qotganim – sir,

Yo'l yurib, mo'l yurib boryapman yonib...

Qultum suvsiz cho'lda zarning qadri yo'q,

Bizning so'qmoqlarni ko'mar qum, to'zon.

Tog'lardan oshamiz dangal, ko'ngil to'q,

Jannatga yetishmoq – sog'inch-u armon.

Karvonim goh suvda, goh o'tda munglig',

Goho qor, goho muz, goho sel, yomg'ir.

Bozordan topganim yengil par yanglig',

Yo'lda yo'qotganim – tog'lardan og'ir...

II

Olg'a, yana olg'a va yana olg'a!..

Tosh ko'prik quramiz qilko'priklarda.

Qoyalar, tik jarlar, garmisel, dolg'a...

O'rgimchak to'ridek gard kipriklarda.

Tog' boshida tuman, cho'qqilarda qor,
Nafs birla sabrning changalida biz.
Ochiq dara ichra chuqur jarlar bor,
Axir, xom sut emgan bandamiz ojiz.

III

Qo'l yetmas cho'qqiga oyog'im yetdi,
Hayotimning yozi qaylarda sarson?!
Tilla sandig'imni daralar yutdi,
Qalbim bir tepaga chiqmadi –
Armon!..

Tog'lar, quyosh o'pgan cho'ng cho'qqilar jim,
Nafasi – sovuq, zax, dami – ayoz, muz.
Suvsiz sahrolarning dardin tinglar kim?!
Bahor o'lkasiga kerak emas kuz...

Yuksak asqartog'lar tongda uyg'onib,
Taqali tulporlar muzda toymoqda.
Quyoshning nurlari qizarib, yonib,
Farishta qorlarni suymoqda.

IV

Tuyaning tovonin toshlar tilmoqda –
Billur muzning tusi gavharga do'ndi.

Istayman o'zimni anglab, bilmoqni –
Jonimni egovlay boshlayman endi.

Tog'dan o'zin tashlar sho'x sharsharalar,
Sharshara kokildan toshlar jimirlar.
Chaqmoqning qahridan bir yig'lab olar
Qorlarga burkangan qora ko'mirlar.

V

O'ngda chuqur jarlik, so'lda tik qoya,
Chaqmoqning qilichi boshimda sindi.
Tog'lar ensasiga tashladi soya –
Qop-qora bulutlar yelkamga mindi.

Tuyalar tebranib, otlar depsindi,
Yesir yanglig' g'ingshir mard Bo'ribosar.
Do'stim sotdi – ko'nglim ko'zgusi sindi,
Nomardlar yaramga yana tuz bosar.

“Osmonlar yer bo'lib, yer osmon bo'lib”,
Ko'rdim Isrofilning sovg'a – quyunin.
Shaytonlar, jinlar bir jamoa bo'lib,
Aysh-ishrat qilishdi, ko'rdim o'yinin.

Bu zamin – doshqozon, qaynar biqirlab,
Kunlar yorma bo'ldi qora tun bilan.
Hech tinchlik bermaydi bir savol biroq:
“O'choqda yonganlar, axir, kim ekan?!”

VI

Ibtidoiy zamonda
Odam Ota
yig'lagan bolalarini
aldab
yupatadi.

Oxir zamonda
bolalar
keksaygan Odam Otani
aldab
yig'latadi...

VII

Yoki men garangman, yoki dunyo gung –
Barglar shitirlamas, vaqt jim o'tadi.
Bir tomchi oltinday miltillaydi kun,
Falak sal titrasa, tomib ketadi.

Ko'k gumbaz darz ketar nogahon, nahot?!
Jimjitlikdan yurak ketar ezilib.
Nafasini yutar sertashvish hayot,
Osmondan kumush nur tushar uzilib.

Bir lahza.
Birgina men guvoh bo'ldim:

Farishta naysasi yurakdan o'tib,
Kiprik qoqquncha vaqt balki men o'ldim...
O'zi tiriltirdi yana rahm etib.

VIII

Taqdir peshonamga yozilgan – bu cho'l,
Qalbmida gul bo'lib yozilgan – bu cho'l.
Bu cho'l – mening onam, oltin beshigim,
Oltin qabr, menga qazilgan – bu cho'l.

IX

“Gapni qo'y, otga min, nor tuyani tort! –
Sargardonlar yurti kutmoqda bizni”.
Tuyalarga yukla, omonatni ort –
Sahardan qistaymiz karvonimizni.

Dilingni yayratar tongning nafasi,
Sahroda qum oshdik, uyg'ondi quyosh.
Ruhimda ilohiy shamollar esib,
Yuragimda qumdek uvalandi tosh.

G'uncha lab, inju tish chertar chanqovuz,
Karvonlar siljiydi quyoshni ko'zlab.
So'nggi manzilimiz Borsa kelmas tuz,
Vaqt qumdan topolmas izimiz izlab.

Baqiroq tuyaning og'zida ko'pik,
Qadamini sanab yo'l bosar faqat.
Yel quvgan qangbaqday taqdirga ko'ndik,
Oxiri xayrli bo'lgay oqibat.

X

Mis qaynagan issiq – bu do'zax o'ti,
Ko'char qumning cheksiz to'lqinlarida.
Cho'l jinlari o'ynar quyundan o'tib,
Jahannamning girdob yolqinlarida.

Urchuqday yigirib qovrilgan qumni,
Yetmish jin qiyqirib sakrar osmonga.
Seni o'g'irlamoq uchun yulqindi,
Ularni qul etding, jonim, insonga.

Sening go'zalliging – boshimga balo,
Boshimga balodir – noz-u karashmang.
Armoning – jin shohi birla sirlashmoq,
Armoning – sehrli yurtda adashmoq.

Maqsadingga yetding, sen yo'qsan endi...
Devpari xonining haramidasan.
Mening karvonimni ko'chgan qum ko'mdi,
Manziling bilmayman izlayin desam.

XI

Nigohim – kunbotish. Qum-to'zon kechdim,
Meshkobda qolmadi bir tomchi ham suv.
Yurak sirlarimni eshitmas hech kim,
Tepamda tebranar dard qarmog'i quv.

Misli o't ichida qolgan chumoli,
Qochaman qarong'u zulmatga tomon.
Zahmat va iztirob qo'ymaydi xoli,
Qaqnusdek olovdan chiqaman omon.

Izimdand ergashar sahro bo'risi,
Yiqilgan zahotim olar bo'g'zimdan.
Cho'l, ishqim ham nafsim bilan kurashib,
O'zingni izlayman, kechib o'zimdan.

XII

Keksaygan saksovul soyalaridan
Kunbotishga og'di yoshlik davronim.
O'rkach-o'rkach qumning oralaridan
Qirq o'rim sochingni topdim, jononim...

...Siniq nayza, quyosh kuydirgan shona.
Kelgan-u ketganning oyoq izi yo'q.
Qadim yurtdan qolgan yolg'iz nishona –
Quruq yulg'un yonmas, ho'l tutantiriq...

Yer yutdimi yoki osmon quchdimi
G'oyiblar yurtida sarson bo'ldim men.
Olisdan termuldim, elasing ilg'amay
Yog'siz chiroq yanglig' bevaqt so'ndim men...

SEN KELSANG NUKUSDA HAR KUN TO'Y

*Tug'ishganimiz Rustam Musurmon Nukusga
kelayotir, degan gapni eshitganimdan
qalpog'imni osmonga otib quvondim.*

Bugun bir sirlashaylik, Rustambek do'stim,
Tangrimning dargohida ikkimiz yolg'iz...
Qattiog'ar – to'lqinli, qalbimiz lim-lim,
Biz bu o'lkaning misli xoqonlarimiz...

Nazar sol: Qoraqalpoq – Qarshi cho'llari
O'xshaydi bir otaning bolalariga.
Taxta bilan Kosonning saksovullari –
Mard, umuman farq yo'qdir oralarida.

Yakkatut qishlog'ida kishnar bir duldul;
U chilvir-arqonlarin uzib ketajak.
Tulporga kenglik, dala, erkinlik ma'qul;
Daryo, ummonlarni suzib o'tajak...

Vaqt kimning kimligin uqtirib borar,
Tarozi o'lchab berar adl pallasin.
Genjamurod bobomni eslatib turar
Ravshanbek otangning oppoq sallasi.

Dono bobolar sinchi, ko'p narsa bilgan –
“Qo'chqor bo'lar qo'zining manglayi do'ng bo'lar”.
Peshonangni quyosh erkalab o'pgan,
El-u yurt suygan yigit senday keng bo'lar..

Tangrim ellikka yana ellik yosh qo'shsin,
Nukusda har kun to'y sen kelganingda.
“Qorator qirg'ovuli qonidan”, do'stim,
Ellik bor simiraylik ellik-ellikdan...

* * *

Sharob ichib, qayg'uga cho'mdim,
"Mayxonadan izladim o'zim".
O'zim xasta ko'nghimni emlab,
Yaramga tuz sepaman o'zim.

Barcha – xursand. Nur olar kundan,
Men – yolg'izman. Men – g'amgin tunman.
Oqshom ko'kda uchgan bir yulduz:
Yurakdagi ko'z yoshman – unman...

* * *

Bu go'zal shaharda yuragim bo'zlar...
Ne uchun... ne uchun... ne uchun bunday?
Oyda – yoz.
Tog'da – qish, qorlar, muzlar bor.
Voh, ko'nghim qilichi yo'qolgan qinday.

Laylaklar mung'ayar oy ummonida,
Toshkent – gipermotor, ul – giperyurak.
Sahroyi ohanglar oqar qonimda –
Yovvoyi tulporlar dupurlar hurkak.

Ko'zni qamashtirar husni yarqiroq,
Bir-biridan go'zal nozanin qizlar.
Go'zallik sirlarin o'rgatar, biroq
Uchishni bilmagan tannoz tovuqlar.

Derazam oldida tinmay chug'urlar –
Uzumlar shoxida maynalar bazmi.
Qanoti boylangan tosh uy faqirlar
Kuzgi dovullarni kutar sog'inib...

Bu Go'zal Toshkentda sog'inchlar qiynar –
Oylar, kunlar, yillar, fasllar ora.
Qush yo'lida parvoz etishni o'ylar
Poytaxt malikasi – Teleminora.

TO‘QQIZ SO‘Z

Seni suydim, to‘qqizinchi may,
to‘qqiz soni – ilohiy raqam.
Xudo amri bilan onadan
to‘qqiz oyda tug‘ilgan odam.

To‘qqiz soni – karomatli son,
bu raqamda sir, sinoat, rom.
To‘qqiz tovushli ot – Chingizxon,
Amir Temur – to‘qqiz harfli nom.

To‘qqiz soni – ishq-muhabbatli,
to‘qqiz soni – nozli to‘qqiz son.
Qalbimda dard – to‘qqiz qavatli
uydasan sen – makoning osmon.

To‘qqizinchi qavat, kech to‘qqiz...
men yerda, u ko‘kda xurram – oy.
U erkin oy, u ozod, yolg‘iz
uch yuz oltmish kunga o‘ktam oy...

* * *

Sahar:

derazaning ko'zlari ochiq –
qaldirg'ochlar uchar, bulbul chag'-chag'lar,
yelkasin osmonga tutar chinorlar,
burnini ko'tarar takabbur tog'lar.
Oynaga qarayman qalbimni ochib,
o'zimdand izlayman yo'qotganlarim.
Qiyqiraman:

– Me-ni yo'-qot-gan ki-i-m bo-o-r?!
Qay-da-siz-la-a-ar?!

Peshin:

mendan topilganlar – darxonasida...
Birinchi... ikkinchi... eshiklar yopiq,
kumush qulf urilar qalbimga,
bag'rimni it tirnar men yolg'iz qolib...

mung'ayib qarayman oltin kalitimga –
zanjirlab qo'yganman erkimni.

Shivirlayman:

– Shunchalar yovuzmisan, ayriliq?..

YOMG'IR

Tog'lardan balandda, bulutdan yuksak
uchar cho'l burguti – dala ayg'iri.
O't qilichin sermar momaguldurak,
Shaharni sel aylar falak yomg'iri.

Pastda – tosh yo'llarda oqar metallar,
pastda – temir-beton tog'lar o'smoqda.
Akfa, shisha kiygan sohibjamollar
Yomg'ir seli bilan raqsga tushmoqda.

Elektr munchoqli, neon sirg'ali
shahar shou qo'ynida qizday charx urar.
“Nedur bu mastlikning pinhon sirlari?..”
tushunmay qahrli chaqmoq barq urar.

Kimnidir izladim yomg'irli tunda,
qalbimda bepoyon armon, sog'inch bor.
Dardlar qiynaydimi seni ham shunday,
tushunarsiz sog'inch, Norqobil Qo'chqor.

Shahardan tashqari – Do'rmon ovulda
ko'k tutunni yutib qalbim iliydi.
Bunda tog' qo'ynida erkin tug'ilgan
To'lin oy bo'riday unsiz uliydi.

OLCHA BOG'LAR GULLAGAN OQSHOM

Har nozli qadamingga
tosh yo'llar yayragay
tanglayin qoqib:
– Tah, tah, tah!

Mitti oyoqchangning qadalgan o'rni
qitig'in keltirar qayroq toshlarning:
– Oh, oh...

Tosh qilib yaratsa edi Xudoyim,
yurgan yo'llaringga to'shalar edim
oyog'ingni suyib:
– Voh...

* * *

Kecha oqshom bir suluv qiz:
“Dunyo alvon gul... – dedi, –
Quyosh botib, chiqsa yulduz,
Gulzordan gul yul...” – dedi.

Bog‘imizda guliston bor,
Borishga yo‘q yo‘l, – dedi, –
Qizning ko‘ngli qildan ham tor –
Boqqa o‘g‘ri bo‘l, – dedi.

Qah-qah kuldi: Qizil gul – men.
Bog‘da qiynar cho‘l... – dedi, –
Qo‘rqsang o‘g‘ri bo‘lishdan sen,
Yigit bo‘lmay o‘l... – dedi.

* * *

Yana mung, sog'inish...

yana eski dard,
Lov-lov o'rtanmoqda qalbim gullari.
Telba sezimlarim uxlardi bedard,
Oh, yana uyg'ondi?! Nega?! Bilmadim...

O', yana uyg'ondi. Qalbimda dovul,
Yana yolg'izligim – eski yo'llarim.
Bulutsiz osmondan kutaman yog'in,
Meni kechiringlar, sarv tollarim...

Sizni entiktirmay – sarobga o'xshab,
o'tib ketgim kelar tushlaringizdan.
Biroq qahratonda ko'nglingiz xushlab,
isitgim keladi qishlaringizda.

Ham sirli, ham g'amli, ham sal erkalab,
Qadamim sanabsiz, yuragingiz dog'.
Sizni charchatdimi, jonim, yakkalik?!
Meni adashtiring bog'boni yo'q Bog'.
Har bir qadamimni sanaysiz andog'.

* * *

Nozik barmoqlaring yigirgan sabog'
Butun hayotimni chirmaydi faqat.
Qaro qismatimda ko'zlaring charog' –
Tosh va muz taqdirim “yov”i beshafqat.

Pinhona saqlaysan mevalaringni
Ochko'z sezimlardan, o'tli nazardan.
Pishgan olmalaring jilvalarinda
Menga tushunarsiz sir bor azaldan.

Pokliging qorovul. Miltig'i o'qli,
Sening chorbog'ingga o'ta olmayman.
Mening yuragimni yondirgan cho'g'ni,
Yo Rab, o'zing saqla, o'chirolmayman.

Yo Alloh, kechirgin mendek qulingni, –
Gunohga boshlaydi bu egasiz Bog'...
Sanam kashta qildi mening dilimni,
Yarqirab turibdi bir oltin sabog'...

* * *

Kunbotardan kelgan bulutlar
jiyda daraxtini devona etdi,
sarg'aytirib sog'inchdan gulin,
yaproqlarin mastona etdi.

Tushunmaydi dardini hech kim,
qora bulut aqli lol, hayron.
O'ksib-o'ksib turib har kech jim,
Bulut yig'lar yuragi vayron.

Bugun tongda jiyda isidan,
boshim noxos aylangan zamon,
yaltir-yultur zar libos kiygan,
bir dilbar qiz keldi men tomon.

Tonggi gulning iforlariday
nafaslari, so'zlari xushbo'y,
nozi fasli bahorlariday,
yanog'i gul, yuzlari xushro'y.

Kiprigida marvarid tomchi –
tizar edi gunohlarimni,
pok nazari mehr istabon
izlar edi nigohlarimni.

Oh, qaytayin, bugun oqshomda
yana bo'zlab yig'laydi osmon –
kim tushunar mening dardimni?!
Men – bulutman, chiday olmasman...

* * *

Dutoring ingrandi, anglatdi o'zin,
Dumburlab dard aytdi, tingladim so'zin:

“Meni hamma maqtab, etadi ta’rif,
Biroq men aslida mungliman – g’arib.

Shoirlar maqtaydi “Ting’irlaydi” deb,
Tovushidan yurak jimirlaydi deb.

“Sirdosh, mungdoshim” deb, suyar qiz baxshi,
Albatta... bularning hammasi yaxshi.

Biroq ko'ksim to'liq dardga, armonga,
Ko'nglim to'q emasdir dunyo – yolg'onga.

Nechun dutor qilib yaratding, Alloh?!
Ichimni cho'ng dardga to'latding, Alloh!

Meni yigit qilib yaratganingda,
Yoshlik sho'xliklari yonib qonimda,

Suluv qiz qo'lidan sharob ichardim,
Shirin so'zlab, xipcha belin quchardim.

Gulday lablaridan suyar edim men,
Umrin bo'yi yonib kuyar edim men.

Dutor so'zlab bo'ldi. Tushungan edim:
“Sen juda baxtiyor dutorsan”, dedim.

Sen yigit bo'lishga qiziqma, shoshma,
Yigitlik buyursin tog'dagi toshga.

Yigitlik azobin bizlar totganmiz,
Ming turli baloga boshni tutganmiz.

Itning hayotidek – yugur-ha, yugur,
Yiqqan-terganingni sovur-ha, sovur...

Aylanib qolsam men agar dutorga,
Zavq-u shavq baxshida aylardim yorga.

Tizzasi ustiga boshimni qo'yib,
Guldek siynasining isiga to'yib,

Yurak urishini tinglar edim men,
Qanday dardlar o'rtar, anglar edim men.

Boshida ilinib turar edim men,
Yotsa ko'rpasiga qular edim men...

Sog'inch o'rtaganda uni so'roqlab,
Meni chertar edi oqshom quchoqlab...

Meni silab-siypab aylanar edi,
G'arib boshim baxtdan aylanar edi.

Sen yigit bo'lishga qiziqma, shoshma!
Yigitlik buyursin tog'dagi toshga..."

Evrilsin shafqatsiz, qahri qattiq vaqt.
Men dutor bo'layin, ato etsin Baxt...

* * *

“Sevaman!” deb aytma qizga sen,
oshkor etma siring – borlig‘ing.
Pinagingni sira buzma sen,
qiynasa ham intizorliging.

Qaddingni tik tutganing sayin,
qiz egilar senga muloyim.
Tunday bo‘lsang, oy kabi iyib,
ergashadi ortingdan doim.

Kinolarga taklif etma ko‘p,
aylaningiz ovloq to‘qayni.
To‘shagingiz bo‘lsin maysa-cho‘p,
yopiningiz yulduzni, oyni...

Itdek yaltoq yigitni ular
jerkib tashlar jini tirishib,
Hadeganda bo‘ltayib qolar,
hadeganda qolar urishib.

Sog‘inadi qashqirday olg‘ir
yigitlarni – lochin qanotli.
“Mard erkakni ato et, Taqdir, –
mard yigitni dovrug‘li, otli...” –

Tilak tilar Xudodan faqat,
mard yigitni sevadi qizlar,

mag'rur erga qilar itoat,
mard yigitga tegadi qizlar.

“Sevaman!” deb aytma qizlarga,
oshkor etma ehtirosingni.
Juda baland uchgan qushlarday
yuksakda tut ishqing – rozingni.

OQ BAYTAL

Dupur... dupur... dupurlar...
Boylovdagi oq baytal,
Oydin tunda dirillar.

Oyga qarab kishnaydi,
Dardin uqar banda yo'q –
Yilqichi tushunmaydi.

To'kilgan dumi – yoli,
Ayg'irday qora bulutlar
Quturib irg'imagdi...

Temirday kurak tishlar
G'ijirlaydi... bo'zto'rg'ay
Chaqirar oq baytalni.

TOL HAQIDA

Tebranadi yalang'och tol,
shamollarda aldangan,
mag'rur edi sohibjamol –
qiz misoli sollangan.

G'addor Kuz ishq izhor qilib,
ko'zlarini yoshlatdi.
Sodda tolni ishontirib,
yaproqlarin tashlatdi.

Kuz aynidi erta. Latif
tolni munglig' etdi ul.
Yalang'ochlab erkalatib,
kiyintirmay ketdi ul.

OH, XUDOY...

Yetmishga kirganda bolali bo'lib,
chol-kampir yig'ladi yuragi to'lib:
– Tirnoqqa zor edik, ko'rding, Xudoyim!
Tirnoqqa zor edik, berding, Xudoyim...

Bolakay er yetdi – sher yigit bo'ldi,
El-u yurt g'amini yer yigit bo'ldi,
Muhabbatda dardi zo'r yigit bo'ldi,
O'rtadi, yondirdi bir qiz oqquday...

...Yuraklar tutashdi, lablar tutashdi...
Umr o'taverdi, daryoday shoshdi.
Ular ham farzandli bo'ldi oqquday.
Endi til-zaboni tinmas: "Oh, Xudoy",
oqquday, oqquday, oppoq oqquday!

* * *

Jononlarning
“Ot ko’tarmas jilva-nozlarin”
ko’tarib turganiga qoyilman,
sinib ketmay,
nozik oyoqchalarning...

* * *

– Allo... Bu kim?.. 24–14?!

Unsiz tinglayotgan sen. Go’shakni yopasan.
Chunki telefon simidagi o’rt
yondirmasdan avval bahona topasan:
“Onam chaqiryapti... Urishar otam...”
So’ng uzoq “tut-tut”lab telefon uzilar.
Qafasdagi qushday pitirlab men ham,
Sog’inch qurshovida ko’nglim buzilar.

Qo’shilmadi senga taqdirim manim,
Ayrilgan so’qmoqlar o’rtasida o’rt.
Sezgan yuragingdan aylanay, jonim,
“Allo... Bu men!
24–14!”

* * *

Eh, quyoshga yetmoq mushkul –
yetsam, qo'lim kuyadi.
Qo'shiqlarim – so'qmoqlarim –
Solgan yo'lim kuyadi.

Chunki senga “dengiz toshsa,
(to'big'ing ham gapmikan?!)
Ho'llay olmas tovoningni” –
Men ne toshgan gap bilan...

Ovlash uchun xayolingni
So'zdan qo'shiq to'playman.
Sen quyoshsan, men bamisli
bo'zlagan qush, to'rg'ayman.

Dardlarimni pisand qilmay,
gul lablaring kuladi.
Men g'aribning yurak-bag'rin
ming yeridan tiladi.

Oh, netarman?! Keng vodiylar,
tog'lar senga navomas.
“Bir chaqa ham turmas qo'shiq”,
dardingga Gul davomas.

Sening darding qo'shiq emas,
sening qo'ling osmonda.
Dard neligin bilmaysan sen,
mening qalbim armonda.

* * *

Sog'inchni – cho'l, chanqog'ini
qondirmoqqa sellar kerak.
Armonni – tol, yaproq'ini
erkalatar yellar kerak.

Yuragim dard bo'lsa yashil,
qiz labiday gullar kerak.
Navro'z oqshomiday asl –
yor ko'ziday tunlar kerak.

Shuncha Quyosh, shuncha Bulut,
yot emasdir, bari kerak.
Cho'llab ham javragan ulug',
Eh, g'aribim, yurak... yurak!

* * *

Sel-sebor yomg'irda adashgim kelar
qutli sezim bilan.
Gullashni sog'ingan juvonday – Bahor
kayfli kezing bilan.

Birovlar yupatar ko'ngillarini
sharob-u uzum bilan.
Yutoqib qarayman shingillaringga,
hali uzilmagan.

O'tgan kunlaringni qaytarmaydi vaqt,
sinar to'zim bilan.
Muhabbat faslida adashmoq chin baxt
yolg'iz o'zing bilan.

O'ZINGGA

I

Xush bo'!.. – degan bilan ko'ngling xush bo'lmas,
Yaprog'i to'kilgan tolday armonim.
Kuzning izhoriga ishonib bo'lmas,
Mevalarin to'kar pishgan armonning...

II

Endi novdalarda ayriliq ho'ngrar,
endi novdalarda yig'laydi hasrat.
Armonli yaproqning dardini tinglab,
derazadan boqar bir mungli surat.

III

Osmondagi bulutga mengzaysan,
Naysoningni kutaman, jonim.
Bezdimaysan yoki bezmaysan...
O'ksib yig'lab o'taman, jonim.

IV

Tosh devordan nazar tashlar ul –
Tosh devorning yuragimikin.
O'zga bilan qadam tashlar ul –
Tosh devorning tilagimikin...

V

Birovlar qo'l cho'zar, birovlar tayoq,
Bor husn-u hosiling qoqib oladi.
Shamollar aylanar girdingda sayoq...
Sendan bu dunyoga nima qoladi?!

AVGUST

Tollardan uzilar yaproqlar yilday:
charchadim kunlarning birxilligidan,
bezindim tunlarning birxilligidan...
Saraton domida taqdir tosh yo'lday.

Tollardan uzilar yaproqlar – yillar,
horidim kunlarning birxilligidan,
zoriqdim tunlarning birxilligidan...
Avgust quchog'ida yonmoqda yo'llar...

* * *

Sochlari bo'yra Shamol,
Tolasin qiyma, Shamol.
Qirq o'rim kokillarin
Tarqatib o'yna, Shamol.

Qadaming yashil, Shamol,
Nafasing asl, Shamol.
Yoqut, zar, injularday
Yo'limda sochil, Shamol.

Bo'yniga osil, Shamol,
Chechakday ochil, Shamol,
Dardlarimni aytdim men,
Qalbingga yashir, Shamol.

* * *

Tonglardan izladim men seni, Tangrim...
Sentyabrday salqin buloq ko'zlari.
Yashira olmabdi ko'chkin, oqma qum
Yalang oyog'ingning izlarin...

Taqasi temirdan otlar tuyog'i,
Sindirib ketibdi qayr og'ochni,
Bir bilak to'lishgan qamish qiyog'i
Yashira olmabdi uch tol sochingni...

Mungli bir chelaging suvning ichinda,
Bir chelaging o'ksir qumga ko'milgan.
Tishimni-tishimga qo'ydim...
Tushundim:
"O'shami mazmuni umrning ?!"

Quyoshning ostidan ko'tarildi chang,
Otlarning izlari – quyoshga yetgan.
"Otadirgan bo'lsang, poklanib
ot, tong"
Debon men darvishlar
yo'lidan ketdim.

XIVANING YULDUZLI, QORLI TUNLARI

* * *

Mening o'ttiz bahor umrim lovullab,
olovda yonibdi aziz kunlarim.
Osmondan yog'ilgan do'lday shovurlab
o'ttiz qish to'kildim... Zinhor bilmadim.

Yana qancha bahor lovullar umrim?!
Yana qancha qishning Isrofil bor?!
"O'choq boshi" otlig' to'rning – temirning
ruhim bandi etgan qancha qulfi bor?!

O'shal tor qafasda o'ttiz birinchi
faslning zanjiri kishanlanadi...
Umrimda kimnidir izlab zor bo'ldim,
o'shal – sen eding...

* * *

...Pinhona sevgining sirli sharobi
yondirib, oq yuzing qizillanadi.
Fikrimga fikringning boli tomadi,
Xivaning yulduzli, qorli tunlari.

Darvoza qulflangan, bekilgan qo'rg'on,
Sen bir xon qizisan, men g'arib qulman,
bekam, qilichingdan o'lmoqlik – armon,
Xivaning yulduzli, qorli tunlari.

Aravasin opqochib qirq ming o'shakning,
“Qirqta kanizaging balqar to'shakda”.
Bir damda ushalgan oltin ushoqday
Mo'rt bo'lib qisqardi Xiva tunlari...

* * *

Bu – yoki ertakdir, yoki shirin tush,
qo'linga pitirlab qo'n-chi, anqo qush,
ming nozli, misoli tovlangan tovus –
husning ta'riflashga so'zim yetmaydi.

Ul o'zi ozoddir, erkindir yayrab,
telbalik, erkalik etgaydir sayrab,
parvozga shaylangay qanotin qayrab,
uchib ketmasligiga ko'zim yetmaydi...

* * *

Aytsam, ado bo'lmas armonim mening,
parining yuragi oyni ko'zlaydi,
parilar tilidagina so'zlaydi,
butkul fido bo'lib yonganim bilan.

* * *

Yetti yil yashadim zindon ichinda,
yetti yil o'zimni o'zim tig'ladim,
g'ozlar uchsa kuzgi osmon ichinda,
qanoti qayrilgan qushday yig'ladim.

Surhayldek qirqta maston payt poylab,
hiyla-nayrang bilan sharob ichirdi,
may bilan mast aylab – ruhimni boylab,
qirq qulochlik chuqur chohga tushirdi.

Yetti qat osmonga ohim cho'zildi,
bo'zlab yetti turna qalbimga qo'nmas,
qirq quloch arg'amchi qilday uzildi,
dardim – zil, ko'nglimni ko'tara olmas.

Ruh ozod bo'lmog'i uchun armondan,
nurafshon bo'lmog'i uchun bu falak,
xalos etmoq uchun meni zindondan
qirq o'rim, qirq quloch sochlaring kerak...

* * *

Qahraton yanvarda, qorli kechada:
“Sovuq qotding – yuraging muzlaydi, – deding –
Yolg‘iz yubormayman seni ko‘chaga,
Balki isinarsan, uyga kir...” – deding.

Va sekin temirday qo‘limdan tutib,
olib kirding aprel – xonangga pinhon.
Qish o‘rtasi yovshan isini yutib,
ishqingning selida javradim yomon...

* * *

Chanqagan yo‘lovchiman, chanqog‘im qondir,
shildiragan toza bulog‘im mening...
Dutor chertib, butun umrimni yondir,
bir oqshom tinglay jon qulog‘im bilan.

Ruxsat ber qalbingning dursullashini
eshitay bag‘ringni – quchog‘ingni ochib,
Ikkov unutaylik dunyo ishini
Yuragimizni yuragimizga bosib...

* * *

Uyingizda bir tup olma bor,
Uyimizda bir tup olma bor,
Ikki uyning olmalarini
Oyoqlarin sevgan solma bor.

Sizning uyda gullaydi olma,
Bizning uyda gullaydi olma.
Bahor o'tar, yoz o'tar – bir dam
Kuz kellarin bilmaydi olma.

Yashil yaproq yopinar olma,
Mevalarga mo'l bo'lar olma.
Solma tilin tushunmaydi u,
“Olma ber!...” deb yalinar solma.

Har tarafdin esar shamollar,
Olma bandin kesar shamollar.
Ikki uyning oralig'ida
Yaproq – armon to'shar shamollar.

* * *

Gunohkorsan sevganing uchun –
butun umring yondi yo'llarda.
Otar tonging – kul va tutundir.

* * *

Bir yuz beshga kirgan momo kampirga,
Aql tishi chiqqan dono kampirga,
Chevara kelini bir savol berdi,
Chevarasi bisyor ena kampirga:

– Momojon, dunyoda yorqin yulduz kim?
Momojon, dunyoda shodmon gul qiz kim?
Deydilar dunyoda muhabbat bordir,
Muhabbatda baxtli bo'lgan ul qiz kim?

– Yigitlar ko'z solsa – shul qiz baxtlidir,
Yuragi yoz bo'lsa – shul qiz baxtlidir!
“Bir oltin imorat qurgaymiz”, debon
Yigit og'iz solsa – shul qiz baxtlidir.

– Momojon, dunyodan ko'nglim qoladi,
Bir narsani bilmay, ichim yonadi.
Yashagan ekanman baxtli qiz bo'lib,
Baxtiyor kelinchak qanday bo'ladi?

– Kelinchak – gul, kuyov – bulbul bo'ladi,
Gulga bulbul qo'nsa, ko'ngil to'ladi.
Kelinchak sochini silasa kuyov,
Shunday kelinchakning baxti kuladi.

– Momojon, shod bo'ldim. Oxirgi savol,
Hayotdan keltiring yana bir misol.

Ayting-chi, dunyoda hammadan suluv,
Hammadan baxtiyor ayol qay ayol?

– Hammadan, hammadan, hammadan afzal,
Quyoshdan, yulduzdan, oydan ham go'zal,
Hammadan baxtiyor, hammadan suluv –
Bolasin emizib o'tirgan ayol!

Bir yuz beshga kirgan Momo – Onaday,
Aql tishi chiqqan dono – Onaday,
Evara, chevara, duvara ko'ring
Bir asr yashagan Ona – Momoday.

SAVOL

Ajab, ko'z taqdiri – kulmoq, yig'lamoq,
Lablar bevafo day tuyular go'yo.
Hayotim – tog'lardan oqayotgan irmoq,
Yurak cho'qqisidan quyular daryo.

Aytilmagan dardli bir qo'shiqdaymiz,
Aslo tinchlik bermas bir savol menga:
Ko'z yosh qolmaguncha nega yig'laymiz?!
Ko'zdan yosh oqquncha kulamiz nega?!

BIR SHUURGA SIG'MAYDI DUNYO

* * *

Kunchiqarga boqsam – shimol o'ngimda,
Kunbotarga boqsam – janub o'ngimda.
Demak, bu dunyoning ma'nisin uqmoq –
o'zimning qo'limda!

* * *

Kul to'kma, og'ayni, oyog'im ostiga,
dushmanim oyog'iga sochma tari(q)ni.
Gullar yorib chiqadi tog'dagi toshni ham,
Bahor eritgaydir qishning qorini.

Halollik, poklikka bo'lg'in tarafdor.
Devlardan qo'rqmagin! Nomardlik etmaylik.
Yuragimda ulug' bir mamlakat bor.
Dev va nomardlarga yurtini tashlab ketmaylik!

Kel, mening Quyoshim! Kel, zamondoshim!
G'aybar topishmoqni topaylik oson...
Ming yillar muz qotgan tog'lar shamollasin,
Keng dalalar nafasini sezsini bu zamon!

* * *

Balandlikni o'ldayotirmiz,
Teranlikni o'ldayotirmiz,
O'ldash mushkul ekan kenglikni.

Og'ir zotni o'ldayotirmiz,
Yengil zotni o'ldayotirmiz,
Saqlay olmay teppe-tenglikni...

Balandlik va Teranliklarda
inoq ekan kalta va uzun.
Shul to'rtovlon do'stlashgan yerda
bunday dedi Shakl va Mazmun:

“Og'ir zotlar cho'kar teranga,
yengil zotlar osmonlab ketar.
Bu kenglikni mensimaganlar
keng etikda oqsoqlanurlar...”

RADDIYA

Soatga o'xshaganning
borligi soat emas.
Qanotga o'xshaganning
borligi qanot emas.

SAVOB ISH

Oshno bo'lgim kelmaydi aqidalarga.
Otin yetaklagim kelmas aqidalarning
jilovdor bo'lib.
Mingdan bir savobdir chinorday tebranmoq
soyabon bo'lib
sahroyi yuraklarga...

* * *

Yuragingda qopag'on it yo'q,
darvozasi doim lang ochiq.
Lekin kutib olar qonsirab,
to'qson to'qqiz qulluq aylagan
hech kimga ozorsiz
ajoyib tulki.

JUMBOQ

Men seni tushunaman,
Biroq sen – meni?!
– Yo‘-o‘q!..
– Demak, ikkimizning farqimiz bor ko‘p.
Tushunish qalqon bo‘ldi odam zotiga,
Tushunmaslik – nogoh otilgan bir o‘q!

OT QISSASI

Doim uloq chopgan qari arg‘umoq
Hurkidi, arqonin uzdi-da ketdi.
Tuyog‘i qizidi tulpor jonivorning,
Quchog‘i keng dala gumburlab ketdi.

...Toptab o‘sgan yerning lola gullarin,
G‘aflatda to‘qishdi bir uchmak toshga.
Jonivor sezdimi so‘nggi damlarin...
Termulib o‘qraydi botgan quyoshga.

Ko‘zlari so‘nggi bor mungli olayib,
Qulinchoq kezlarin o‘ylay boshladi.
“Otni tirigida halollaylik”, deb,
Yo‘lovchi xanjarin qayray boshladi.

HAYVONOT BOG'IDA

Temir to'ring ichida – ayiq,
temir to'ring ichida – qashqir,
Maymun turar – qo'llari yoyiq,
kiyiklarning ko'zida yoshdir...

Temir to'rda ingranadi sher,
temir to'rda – dardli arslon.
Parvozdan benasib burgutlar,
temir to'rda – mungli yo'lbarslar.

Yotsa – temir, suyansa – temir..
musht ko'rsatar “botir maymunlar”..
Temir bilan qurshalgan umr,
to'rt burchakli temirday yillar.

Qisib ezmoq to'rt burchak ishi –
sindiradi ruhni omburday.
Endi bahor, yoz, kuzi, qishi
to'rt burchakli temir zanjirday.

* * *

Yomg'ir, do'lda qolgan qalbimga,
qahratonning ayozi – o'ktam.
Muzlab yotgan horg'in tongni men
eslagayman har lahza, har dam.

Sal uvushgan ko'ngil bo'stonim,
fevral seli muzlatib ketdi.
Alg'ov-dalg'ov shuur osmonim
ming andisha anglatib ketdi.

Bir shuurga sig'maydi dunyo:
ming andisha, million tuyg'ular.
Bir boshimga mingta dard, jafo –
yomg'ir, do'l-u qorlar yog'ilar...

Dala-tuzda javrab jiqqa ho'l,
kelajakka tashlayman nazar.
Mart mehrini sog'inib butkul,
orzularim gullar intizor.

* * *

Urushdan qo'rqqanlar mushtlasha olmaydi!
Qo'rqoqlik bor yerda sotqinlik hukmdor!
Sotqinlik bor yerda hiylakorlik qolmaydi!
G'irromlikning ustidan halol hukm bor!

Dalasi yo'q yerda kenglik bo'lmaydi –
Tulporlar tor yerda tuyoqdan mayirilar!
Donosi yo'q yerda tenglik bo'lmaydi –
Vatan shoirlardan ayrilar!..

* * *

Ishlatayotirmiz toshni, temirni,
Imorating – toshdan, ko'liging – temir.
Tuproqdan iylangan go'zal umrning
Haqiqiy onasi erur faqat yer.

Toshda odam turqi, temirda – zabon,
Vaqtning hukmi bilan bari yemirilar.
Manov gul dunyo ham qolmaydi omon,
Yumshamasa agar qalbi temirlar.

* * *

Ko'ngil daftarimda so'roq belgisi (?)
Ko'ngil saroyimda faryod, oh-u zor.
Meni tark ayladi darvish kabi xor
qalbimning oshnosi – do'stlik farishtasi...

Arosat cho'qmorin olib yugurding,
bovurim ezilib turgan paytda
qilichingni qindan sug'urding.

Ko'ngil daftarimda qator uch nuqta (...)
Ko'ngil saroyimda ingrar dil, bilding –
Qalqon qilgan edim yurakni haqqa,
bir mushkul o'y bilan qilichlab tilding.

Mayli...
Orttirganim bitta do'st edi...
O'zing sig'dirmading do'stlik parisin –
mening orttirganim bir dushman endi...

Ko'ngil daftarimda qahrli undov (!)
Ko'ngil saroyimda g'amgin Faylasuf...

* * *

Vaqtning qayrog'inda tosh barmoqlarim
po'lat panjalarga aylandi bugun –
qora marmar sinar qisimlarimda,
Gullarni ushlashga qo'rqaman endi.

FUTBOL TO'PIGA

– Maydonda talash to'p, “Ola ekansan!” –
desam, yurak-bag'ri yara ekansan.
Qirq to'rtta oyoqdan har kun tepki yeb,
Sho'rgina manglayi qora ekansan!

Falonchi tepdimi – uchib boryapsan,
Tuvlanchi tepdimi – uchib boryapsan.
Yana kim tepadi – taqdiring mujmal,
O'zing shishgan eding – shishib boryapsan...

O'yinchi bo'linar ikki tomonga,
Ishqiboz bo'linar ikki tomonga.
Ikkiga bo'lingan bu dunyo – qiy-chuv,
Butunsan-u, jimjitliging yomon-da!

Sen bois millionlar zavqi ortadi,
Millionlar ortingdan chopib charchadi.
Barchaga quvonch baxsh aylaysan, lekin
Ikki darvozabon sendan qo'rqadi.

Maydonda Kuch, Aql, Tezlik – hukmdor,
Uch birlik bor yerda yengish – yutish bor.
Barcha o'yinchining sardori sezim,
To'p darvoza tomon uchdi, tutinglar!

**MUNGLASHARIM,
SIRLASHARIM – DUTORIM**

Yuragimda hasrat, dardim ko‘p mening,
Sendan boshqa dardlasharim yo‘q mening,
Bu dunyoda, bu yolg‘onda xo‘p mening
Munglasharim, sirlasharim – dutorim.

Do‘stlar ketsa galma-gallari bilan,
Har kim ham mard turmas hollari bilan,
Tunlar bedor otgan tonglarim bilan
Munglasharim, sirlasharim – dutorim.

Hech kimsasiz yolg‘iz o‘zim qolganda,
Oydin oqshom ko‘nglim dardga to‘lganda,
Men kimnidir kutib, qalbim yonganda
Munglasharim, sirlasharim – dutorim.

* * *

Arslon hamla qildi menga tushimda –
“Bismilloh!” deb qo'lga o'q va yoy oldim,
naqd nishonim edi yurakning to'shi,
otmadim, bir lahza o'ylanib qoldim.

“Oyga panja ur!” deb aytmadim sherga –
o'zni bag'ishlamoq edi tilagim.
“Sherning changalida o'lmoq – baxt” degan
o'yni yaxshilikka yo'ydi yuragim.

Yoy tortdim, parli o'q uchdi osmonga –
nishonim sher emas, to'lin oy bo'ldi,
chaqmoqday o'kirib menga tashlangan
arslon oyog'imga behol yiqildi.

Qaydadir bunday kuch, bundayin qudrat?!
Arslonni qulatdi qay bir bahodir?!
Boqsam, sher panjasi ostida go'zal
men uzgan o'q tekkan to'lin Oy yotur...

* * *

Qushday silkinishga holi qolmagan
bandaning ko'nglini yupatsam deya
baland cho'qqilarni va'da etaman.

Tunning siynasini ikkiga bo'lgan
navro'z yashinlari qo'rqitar uni.

Chaqmoqqa bir qadam yaqin bo'lishdan,
ot solib qochar ul, ko'zi yumilgan.
"boshimga tushar" deb seskanganidan,
armoni – qirq quloch in qazib yashar.

Unga cho'ng cho'qqini unutish – baxtdir.

NASIBA

Zog'orasi yorti bandaning
Qanday butun bo'lar ong-fikri, axir? –
Qaqragan tuproqda o'sgan daraxtning
nasibasi yorti – mevasi taxir.

Butun kirpichlardan tiklanar saroy,
Siniq kirpichlardan uy qurgan banda
Yarimta nonini butunlayman deb
Umrining yarmini boy berdi angda...

* * *

Ikki yelkamdagi ikki farishta,
Gunoh-savobimni yozib ulgurmas.
Ko'nglim muddaosin oppoq qog'ozga,
Mening o'zim kabi hech kim bitolmas.

Toshday g'adir-budur she'rlarim uchun
Men hali Allohga javob berurman.
Kimplarni yig'latdim, kimga jabr etdim?!
Qabrga gunohim birla keturman.

Do'stmiz deb ont ichgan o'mrovli beklar
Tashlab ketdi meni cho'ldagi chohga –
Qanday unutarman –
Men ham bandaman
Haq oldim bo'ynimga tushgan gunohga.

* * *

Og'alar, besh kunlik foniylar dunyoning
to'rtovini o'tkarib, biri qolganda
nega boshingizni chayqaysiz g'amgin?!

Og'alar, besh kunlik foniylar dunyoning
uchovini o'tkazgan inilaringiz
qaddingiz qayishganini ko'rib qiynalar...

* * *

Dunyoning yarmini oldim – ne foyda?!
Haq deb, adolat deb yondim – ne foyda?!
Mendek Bilga xoqon sonming – ne foyda?!
So'ngi vayron ekan, dilbarim.

Gulni o'stirganlar rohatin ko'rmas,
Mehr ko'rsatganlar rahmatin ko'rmas,
Yaxshilar shaytonning siyratin ko'rmas,
Hamma hayron ekan, dilbarim.

Iblislardan savol-javob olmasa,
Azozil urug'iga zavol solmasa,
Alloh holimizga nazar qilmasa,
Holdan toygan ekan, dilbarim.

* * *

Toshbo'ron ostida qolarman balkim,
muqaddas tuproqqa sim-sim singarman.
Rasulning qoshiga ucharman nurday,
topshirmoqlik uchun omonat mulkin.

Tuproqdan gul bo'lib chiqarman balkim,
ulkan xarsangtoshlar ichra oralab,
bu g'arib dunyoga nurday taralib,
bahorda sel bo'lib yog'ishim mumkin.

* * *

Daryolarning chappa oqqanin ko'rdim,
Ko'rdim buloqlarning toshga do'nganin,
ko'kda bulutlarning lov-lov yonganin.

O'ngimdan qo'rqaman, uxlab qolaman –
Tushimda qo'rqitar qora ajdarho,
oppoq ajdarhoni yutib yuborgan.

Oyoq-qo'lim toshga aylanganidan
Qora ajdarhoga qilich sololmay,
o'lib UYG'ONAMAN ming armon bilan.

O'lib uyg'onganning kuni qurisin,
o'lib TIRILGANNING kuni qurisin,
daryolar oqmasa o'z yo'li bilan,
buloqlar sel-sebor yig'lab turmasa...

* * *

Sonming hikmatlarni o'qib uqdim men,
G'adir-budur qo'shiq to'qib uqdim men –
Ko'zimda yosh qolmay yig'lab tushundim,
Ko'zimdan yosh oqib, kulib tushundim:

“Men erta kelibman manov dunyoga,
Kechikib kelibman manov dunyoga...”

* * *

Hey, qirq yigitiga ishongan Qoblan,
boshingga kun tushib, mayishganingda,
yolg'izlik bag'ringni tilkalayotir.

Loshim qolmasin deb dala-tuzlarda,
qon yutib, qon yutib ichdan yig'laysan,
qirq bahodiringdan bugun darak yo'q.

Hali ko'p qiynaydi Xudoyim seni –
yovning o'rtasida qilich-qalqonin
tashlab qochganlarga sarpo yoparsan...

* * *

“Hali ko'p o'tlarga tusharsan, o'g'lim”,
tomchilab suv sepgan qaldirg'ochlarning
qanoti kuyadi olov ichida.

Toshlarni yondirgan olov ichidan
bir tola ipakning asl momig'in
omon olib chiqar emish Semurg' qush:

Ko'zingni yumganing – umring garovi,
o'tda yonib ketgan qaldirg'ochlarning
faryodi bag'ringni kabob qiladi.

“Hali ko'p o'tlarga tusharsan, o'g'lim...”

OLTI OYLIK YO'LGA KETARMAN

* * *

Men ham baxt qushidan umidvor inson.
“Noumid – shaytondir”. Dilimda armon.
Baxtning oltin qushi charx urgan zamon
tanlamas kim faqir, kim esa xoqon;

tanlamas donomi va yoki telba;
tanlamas botirmi yoki qo'rqoqmi;
tanlamas chechanmi yo shoir elga,
tortmas torozuga nohaqmi, haqmi;

Qo'nadi mingdan bir kishi boshiga,
Qo'lin ko'kka cho'zib chuvillab uvvos
Qolgan to'qqiz yuz-u to'qson to'qqizi,
Baxt qushiga zinhor ishonib bo'lmas.

Balki u tark etib ming kishini ham,
qo'ngaydir kimningdir qabr toshiga...

* * *

Tog'larga boshimni olib ketayin,
qorli cho'qqilarda sovutay qonim,
Ming yillik muzliklar ichra o'chayin,
singib ketsin billur muzlarga jonim.

* * *

Yolg'onchi dunyoni tark etib,
dovul quvgan qora bulutday
o'ksib-o'ksib yig'lagim kelar.

Men borayin qaysi dunyoga?!
Qanotlarim ham holdan toygan,
ruhim – gujum, tashna daryoga,
tomirin sho'r tuproqqa yoygan.

Uchib keta olmayman hargiz,
yolg'onchidan to'ydim men, osmon!
Ko'kragimda og'ir qora tosh...

* * *

Qabul etgin, yetti qat Osmon!
Mening zilday ko'nglimni yupat...
Guvullayin qorbo'ron bo'lib,
bag'ringda men bulutlar sifat.

Erib bitsin yuragimda dard –
ado bo'lsin bu toshning umri.

* * *

Qirq kunlik yo'l.
Uning azobi
o'ttiz to'qqiz kundan iborat –
tentiradim sargardonlikda.

Faqatgina bir kunim nurli,
o'shanga ham shukr etarman.
Kunchiqishga yuzimni burib,
olti oylik yo'lga ketarman.

* * *

Oltin va injulik ko'ngil saroyim,
muzli sukunatning saltanatida jimjit...

Tabiatimga yot sovuq ob-havo
jonimga g'alati rohat bag'ishlar,
dovulsiz, shamolsiz, ayoz benavo,
qahraton qirovdan chizar naqshlar.

* * *

Qadahlar jarangi, yorning kulgusi,
ham o'tlig' damlarning zavq-shavqi bilan
yashirinib yotgan ajib podshohlik
Sokin sukunatda uyg'onar ekan.

Bu manman sovuqlik, go'zal sovuqlik
o'shal xoqonlikning egasi bo'lgan
qalbimni qayraydi ayozi bilan.
Oltin va marvarid muzga o'xshaydi.

Kechagi saraton o'rtagan yurak
bugun sovuqlikni sevadi nechun?!

Javob topolmayman hech o'zligimdan
qalbimda oltindek Ayozi bor uchun.

* * *

Yuraging – qop-qora tun.
Peshonamga urgan cho'qmordan
boshim emas, osmon yorildi.

Yuraging – qop-qora tun
oh, osmonda chaqmoq yaltillar.
Sur toshlarning surbet yuzinda
qulochimni yoyib yoturman.

Mening qonim uradi seni!..

* * *

Boshpanam – ko'hna tom,
ko'nglimda – saroy.
O'zgalar tushunmas o'zimdanda boshqa...
Bolta otolmayman
osmonga qarab –
chopib tushar oyoqlarin
bolalarimning.

Bul ko'hna tomga
isfahoni qilich sig'maydi.
Erganakdan enkayib kirgan
yovlarga sermasam –
boshin tandan judo qilar
ham vayron etadi
zo'rg'a turgan to'rtta devorning
zo'rg'a turgan sakkiz burchagin.

* * *

Yulduzsiz kechada yo'l topmay boshqa,
o'z otimni o'zim adashtiraman.
Qizning badaniday oq marmar toshga
saksovuldan gulxan qalashtiraman.

Bilaman, kimlardir isinish uchun
talpinar tovlanib yongan yolingga.
Bilaman, kimlardir o'ch olish uchun
panadan tosh otar g'arib holimga.

Bilaman, kimlardir yulduzsiz bu kech
zulmatda men yoqqan o'tga toblanar.
Bilaman, kimlardir o'qtalib qilich,
o'timni so'ndirmoq uchun shaylanar.

* * *

“Yaxshidan – sharofat, yomondan – ofat”,
birov tuzatadi, birov buzadi.
Kechagi hur dunyo bugun arosat,
Erta bulutni o'pgan tog'lar to'zadi.

Otaning oldida farzand gunohkor –
tog'lardan soylarga yumalaydi tosh.
Bu foniy dunyoning qilmishi makkor,
Shaytonning fitnasi hargiz bo'lmas fosh.

Bir yoqda Rahmon-u, bir yoqda Shayton,
o'rtada inson va iymon turadi.
Dushmanni “do'st” qilib, do'stlarni dushman,
qizil ko'zli Shayton pinhon turadi.

Odam ota va Nuh alayhissalom,
Sulaymon, Muhammad el-yurt so'radi,
oq sutga tulkinining tezagin solgan
shum Shaytonni qachon Xudo uradi?!

* * *

Qo'llarimni cho'zdim osmonga,
bulutlarga yetmadi biroq.
Men toshlardan qurdim minora
ko'kni o'pgan tog'dan balandroq.

Yana baland parvozni istab,
qo'llarimga qanot boyladim,
"Anal-haq!" deb o'pkam halloslab,
oyni quchoqlashni istadim.

Dunyo qafas siyoqli menga –
dunyo torlik qilar ko'nglimga.
Men ishonib yashadim, o'lsam,
yana qayta tirilmagimga.

ASSALOM, YURAKNING O'RT¹LI OSMONI!

DARVOZA OLDIDA

Sipoyi Qo'shiqlar – kostyum-shalvorli,
Sipoyi Qo'shiqlar – saqolsiz, murtsiz,
Sipoyi Qo'shiqlar – obro'yni quli,
Sipoyi Qo'shiqlar – kuyiksiz, o'rtsiz,
“Salomat” bo'ling!

Assalom, qalbimning o'rtli osmoni,
Assalom, tuyg'umning o'tli ummoni,
Assalom, dardimning o'tli dostoni,
Assalom, so'zimning o'rtli tumani,
Assalom, Sizlarga, assalom...

¹ O'rt "o'rtar" so'zining o'zagi, o'rtanmoq... (“Agar oshiqligim aytsam kuyib jon-u jahon o'rtar” Mashrab.)

DARDI HOL

Jimjit atrof... –
Zal unsiz...
Jimjit yaproq –
Tol unsiz...
Qobog‘idan qor yog‘ar,
alp qomat Daraxtlar.
Tishlanadi kirpichlar,
Telba boqar sharoblar.
“Shoir, g‘alat etding” – der,
“Shoir, qattiq ketding” der.

Jimjit Harf...
Shon unsiz.
Dasturxonda non unsiz.
Musht ko‘rsatar Undovlar.
Ming‘illaydi Kundovlar...
To‘nqillagan Odalar
yeb qo‘yarday qadalar:
– Oq soqolli Vaqtning
katta to‘yin buzding, – der, –
“Bo‘linganni bo‘ri yer”,
Yuragimni quzg‘un yer...

Jimjit Qo‘shiq,
So‘z unsiz,
O‘zmambetlar –
“O‘z” unsiz...
Yig‘lash uchun yaralgan,

Kulish uchun yaralgan
Nechundir bu ko'z unsiz.
Yig'lamaysiz nega siz?!
Kulmaysizlar nega siz?!

Oh, bechora Harflar –
Jonning quli – g'ariblar.
“Madhiyaboz” shoirlar,
Xotiningiz bir –
Ta'riflash...
Yukli bo'lmas she'ringiz,
Bola tug'mas Ta'riflar...

Jimjit atrof... –
Zal unsiz...
Jimjit yaproq...
Tol unsiz...
Jimjit harf...
Jon unsiz.
Dasturxonda non unsiz.
Musht ko'rsatmas Undovlar (...)
So'roqlarmas Kundovlar (?..)
(Haqiqat – shamshir erur)
Qilichladim ularni
Jim o'tirar g'ing etmay...
Rost emasdir (?..)
Ertakday...

Haqiqat Shamshir erur,
Kunda yotsa totlanar.

Yurak – botir. Til – botir.
Qo‘shiq yovga otlana... –
Lak-lak lashkar, lak lashkar,
Qahrangan ko‘p askar,
Sig‘may ketar bo‘g‘inga,
Sig‘may ketar ohangga,
Sinib ketar Qatorlar...
Qilich, Qalqon – Fikrlar,
jang maydonda satrlar.

Qo‘shiq yovga otlandi,
Sarkardasi – mavzusi,
g‘oyasidir – onasi.
Shamshir tilim – o‘t tilim,
Alpomishim, mard tilim,
Qarog‘ingning dardi ko‘p...
Jon azobi – dardi ko‘p...
Yonib-yonib ayt, tilim.

Shoir – xanjar,
qayralsin,
O‘tkirlashsin – shart o‘tgay...
Haqiqat – yoy o‘qidir,
O‘q tegsin, xato ketmay...

...Tilin tiygan shoirlar
qinda singan Qilichday,
axta bo‘lgan erkakday...

MING ASRLIK G'AFLATNI SILKIB TASHLA

Ming o'rkachli tuyaday sarg'ish qumlar,
Ming asrlik g'aflatni silkib tashla!
Ming asrlik kamtarin, mo'min qumlar,
Ming asrlik hasratni silkib tashla!

Qum ostida ming sandiq – ochib tashla!
Mung ostida mung sandiq – ochib tashla!
Ming asrlik g'aflatni aytib kuyla...
Ming asrlik hasratni aytib kuyla...

* * *

Tushimga kiradi Boysun tog'lari –
Boshiga kun tushgan tulporlar kishnar.
Og'asiz qolgan yurtning boshi g'avg'oli,
Ot bo'lgan toylarning dardin kim tushunar?!

O'z yurtini tashlab ko'chsa Boysarilari,
Muomalaga kelmasa Boybo'rilar,
bu el yana ming bora chopiladi,
etikli suv kechar ming bor erlari...

VAQTGA

O't bilan suvlarning orasidan,
Bol bilan Uv¹larning orasidan
Qanotlari lovullab
yonib kelgan Qush,
asrlarning tosh
qubbasidan boshlab
bronza va temir gumbazlariga
qanotlari lovullab,
qo'nib kelgan qush,
otishmoq, chopishmoq –
urush o'tidan
yuragi muz bo'lib,
to'nib kelgan Qush,
qo'nding asrimizning
“N”² qubbasiga...
parlaring to'kilib,
nolib kelgan qush...
Kechaging – o'tmishing,
buguning – neytron...
Ertang...

¹ Uv – zahar (tarjimon).

² “N” – neytron (B.G.)

SHOIR MONOLOGI

Yo'llar yo'q,
Bog'lar yo'q,
Chiqish, Botish yo'q,
Quyoshning farzandi edim,
Yerning farzandi edim.
Ellar yo'q,
Chegara yo'q,
Urish-surish yo'q,
Sahroning farzandi edim,
O'rmonning farzandi edim.

Dastlab paydo bo'ldi qiyshiq, sur devlar –
Kuchlining kuchsizga ko'rsatgan jafosi.
Sirpanchiq so'qmoqlar –
makr-u hiylalar,
fitna – firibgarlarning maston opasi.

Yo'llarga aylandi ilon so'qmoqlar...
Insonni qul etishning ajdarho yo'li.
Boshga soqchi edi qilich, to'qmoqlar,
Boshga kuch ishlatdi insonning qo'li.

U bo'lib tashladi "Botish, Chiqish..." deb,
Yo'llar ham ayrildi Botish, Chiqishga...
Va yo'llar boshlandi Botish, Chiqishdan,
Kim "Elga tinchlik" deb,

Kimlar “Urush!” deb...

Yuraklar bo‘lindi Botish, Chiqishga...
Fikrlar, Tuyg‘ular, Inson Qo‘llari.
Bugun sanash mushkul erur hayotda
Odam o‘ldirishning yo‘llarin...

Oh, mening mehrsiz Qo‘llarim!
Oh, mening mehrli Qo‘llarim!

Yo‘llar yo‘q,
Bog‘lar yo‘q,
Chiqish, Botish yo‘q
 Quyoshning farzandi edim,
 Yerning farzandi edim.

Ellar yo‘q,
Chegara yo‘q,
Urish-surish yo‘q
Sahroning farzandi edim,
O‘rmonning farzandi edim...
(...Oyog‘im – Botishda,
Boshim – Chiqishda,
Yuragimda – Saraton,
 Tol-tush.
Ayni tushda qolgim keladi.

Chiqishda tug‘ildim,
Botishda emas.

Tol-tush

Saratonda yongim keladi...)

Lek bugun yo'llar ko'p

qarg'a tomirli.

Tarixning yuragiga tutashadi u.

"Botishning Chiqishi bor,

Chiqishning Botishi".

Vaqtning milida uchrashadi u.

Elektro dutorlarday yuqori voltli

Dor – torlar ding'irlab turibdi bunda.

Sochi yelkasiga tushgan kosmopolit

Tinchlik nag'masini chaladi – g'amda...

Urush nag'masi ham chalingan bunda...

Siyosat – dutordir,

uning torlarin

tinmay urib turar neytron

panjalar,

Qutqara olmaydi payg'ambarlaring –

Nuhning qayig'i ham...

Jon saqlash mushkul...

Yo'llarsiz,

Bog'larsiz,

Chiqish, Botishsiz

Quyoshning farzandi bo'lgim keladi.

Ellarsiz,
Chegarasiz,
Urish-surishsiz
Yerning farzandi bo'lgim keladi...

Quyosh barchaga teng,
hammaga sherik,
olamga quyoshday bo'lgim keladi.

O'zimni yoqsam-da
harorat berib,
yurakka nur yanglig' to'lgim keladi...

Lekin "birog'i" bor manov dunyoning,
Qayerga bormayin:
yo'llar...
yana yo'l...

MILTIQSIZ MAMLAKAT HAQIDA QO'SHIQ

Yuragimda mamlakat bor –
yolg'iz mamlakat,
Qush uchsa qanoti kuygan sahrolari bor.
Dutorlar kuylaydi bunda gumburlab,
Berdaqning qamish qushi,
qarqaralari bor.

Yuragimda mamlakat bor –
osmoni Quyoshli.
Tog'lari manman emas,
kengfe'l Dalasi bor.
Tinglaydigan yurak bor
bunda Quyoshni,
Adolat – payg'ambari,
Vijdon – Allohi bor.

Yuragimda mamlakat bor –
chegarasi bor,
Bir ajib ummonning
yoqasinda ul.
Bu yerda miltiq yo'q –
otilmaydi o'q,
Sozlar bor,
Ranglar bor
va Qo'shiqlar bor...

YOMG'IRLARDA CHO'MILGAN NUKUS

Yuvintirayotir bahor yomg'iri
oq marmar sovutli imoratlarni
to'rt qator so'z yanglig' panel uylarni,
aeroportni – reaktiv temir qanotlarni,
munglig' Tollarni...

Ruhim osmonida bezovta bulut,
Navro'z chaqmog'ida guvranadi ul –
dimiqqan kenglikni ozoda qilib,
muqaddas o't bilan tebranadi ul.

Yuvintirayotir bahor yomg'iri
KamAZ, avtobuslar...
eski VAZlarni.
Ham dardli, ham shodon signallar berib
yuragimni manzillarga sozlaydi –
Poyezdlar chinqirar.

Cho'miltirayotir ruhimni u Bahor –
ruhim ham qaytadan tug'ilayotir:
nurli selda javrab, qayta uyg'ongan
Nukus yuvinayotir.

* * *

...Olti og'a ketib olisga,
to'rt ini tongda tortishgan,
kecha to'shin to'shiga bossa,
bugun bir-birini chopishgan.

Xoqonlik ishga qul kelib,
qul bilan oltin, pul kelib,
aslzoda ul ham qiz o'lib,
bu yurtidan qutning qushi uchgan.

To'rt tug'ishganning dovidan,
foydalanib qolgan yovi-da,
yoy tortib ulkan oltovi-da,
xonadonlar bo'lgan dushman.

"Tangrimning keldi qahri..." –
bul Turkonning po'sdi bari,
nasibasi sochilgan tari(q)
yanglig' barakasi qochgan...

* * *

Turkan uyida “Yetti qaroqchi”ga termulib,
yurtimni o’ylayman:
Ulug’ Turkning bugungi jujuqlari
O’kuzdaryoni no’xtalab, ikki shoxin boltalab
sindirgan.

Tiriklay terisin siyirib,
Qizilqum va Qoraqumga
qonin sochib yotur O’kuzdaryoning.
Bul qumlar qonga hech qongan emas...

Turkan uyda “Yetti qaroqchi”ga termulib,
voh, o’ylayman yurtimni:
to’fon suvni unutgan, Nuh payg’ambarni
unutgan
Endi qum to’foni bosayotganidan bexabar
Yurtimni, voh, o’ylayman.

Olti og’a ola bo’lib, og’zidagin oldirgan
yurtim,
to’rt ini begona bo’lib, hoqonligin yovga
qoldirgan yurtim,
Qayiq yasab to’fon suvdan asrab edi
Nuh payg’ambar,
Qum to’fonda joningga ora kirar kiming bor?

“Qutadg’u bilig”ning qadrin bilmay,
Kasofatga giriftor bo’lgan yurtim.

BOBOTURK SO'ZI

“El bo'larmiz...” deb edik –
Asqar tog'day armonli.
Qizil oltin – asil zot,
(itmas) tus bo'ri edik,
Olti og'aining og'zi ola bo'ldi.

“Xalq bo'larmiz!” deb edik...
Qilichlar qinda zanglandi,
Nayzalarin sopi qamishdan
g'alchalar yo'lga otlandi.
Qarag'ay soplilar sinib edik.

“Yurtimiz bo'lsin!” deb edik,
Qullikka qachon ko'nib edik?!
O'lsak ham ozod edik!
Ozod edik, shod edik...

Og'izlari ola olti og'a,
qullarga berding taxtingni –
qullarga berding baxtingni.

Ot bo'lgan toylarni bilmagan –
bachchag'arlar!
Tulporlarga qamchi sermagan –
bachchag'arlar!

* * *

“Qir boshini qor olar,
Xon boshini xon olar”.
Ruhlari qul bandalar
Bo‘yni siniq, xam bo‘lar.

“Qir boshini qor olar,
Xon boshini xon olar”.
Och qolsa elanmaydi,
Birovga tilanmaydi.
Asli asilzodalar.

“Qir boshini qor olar,
Xon boshini xon olar”.
Asl qushning bolasin
Parvozi baland bo‘lar,
Qanoti tolmas bo‘lar.

“Qir boshini qor olar
Xon boshini xon olar”.
Palagi past yigitlar
Makkor bo‘lar, shum bo‘lar...
Qorni to‘ysa qul bo‘lar.

“Qir boshini qor olar,
Xon boshini xon olar”.
Zoti asil yigitlar
Yulduzi mo‘l tun bo‘lar,
Buluti yo‘q kun bo‘lar.

* * *

Balxan tog'da bo'zladim –
birin-ketin karvonlar
chiqolmas tog' boshiga.
Qanoti singan qushlarning
hasratli ko'z yoshinda –
mo'ltir-mo'ltir armonlar...

Balxan tog'ning boshinda,
baliq o'ynar tushinda...
qayrilib uchar qarchig'ay
qir-adirda qolganlar,
adirda qolgan armonlar...

Kuchdan qolsa bo'talar,
esdan ozdi otalar.
“Qayinning tubin suv olib” –
Qo'llariga shamshir, tug' olib,
Ont ichib ko'k temir deb,
“Yo o'lim, yo umr” deb,
qalin yovni qiyratib,
bilaklari tolganlar...

Balxan tog'da bo'zladim:
“Qora qilni qirq yorgan,
Bulg'or yurtini so'ragan,
qani, asl farmonlar?!”

Uzuq-yuluq karvonlar –
uzuq-yuluq shajara:
bobom surgan davronlar” –
debon ko‘nglim dog‘ bo‘lar.

Qanoti siniq qushlarning
tog‘ga qurbi yetmaydi,
yutib ko‘zda yoshlarin,
tulki yurmas zulmatda
chakalakda tunaydi.
Tushlariga kiradi
Azovning oq oydini.

Balxan tog‘da bo‘zladim,
Kuyub ketdi ko‘kayim.

Olis yo‘lga sozladim,
ruhim mening jafoli.
Qarag‘ay sopli nayzalar,
qaltirar Oqkarmanda¹ –
armonim ming shoxali:
ming andisha bor menda...

¹ Oqkarman – qal‘a.

* * *

Qadimgi Turkistonning bugungi bolalari
tanlab mingudayin arg'umoq oz ularda,
kerilib yoy tortolmas – nozikkina qo'llari,
baliqko'z oqsovutni to'ldirmas iyyinlari.

Qadimgi Turkistonning bugungi bolalari
Isfahoni qilichning qo'shiqlarin unutgan,
unutgan bobomning yurtin – Balxan tog'larin,
Edilda qolgan elin, yaylov – Yoyiqni ham.

Qadimgi Turkistonning ertangi bolalarin
alp etib tug'gudek alp Ona yo'q,
sherning yurak-bag'riga
boshqorong'u ko'krak,
sherga o'q-yoy tortadigan mardona yo'q.

Qadimgi Turkiston – nashavand qarriday,
bul qadimgi tuproq – qoni oz Ona.
Toylar ot bo'lolmas yo'lga yaramay –
Alpomish bo'lolmaydi zaharlangan bola.

* * *

Cho'llar qo'zg'aladi, ko'llar qo'zg'aladi,
Ko'kni sog'ingan qush – dillar qo'zg'aladi,
"Qanoting sinmasin..." – gullar qo'zg'aladi,
Mening armonlarim – Osmon armonlarim.

Tog'lar qo'zg'aladi, soylar qo'zg'aladi,
Sho'rlik manglayimda qotgan tuz qoladi,
Bir umr ot bo'lgan toylar qo'zg'aladi,
Mening armonlarim – Doston armonlarim...

To'g'on qo'zg'aladi, yo'llar qo'zg'aladi,
Qalam, bel ushlagan qo'llar qo'zg'aladi,
Uxlab yotgan Qoblon ullar qo'zg'aladi,
Uyg'oq armonlarim – shoshqin armonlarim...

Muzlar qo'zg'aladi, suvlar qo'zg'aladi,
Bobom saqlab yotgan tug'lar qo'zg'aladi,
Ota yurtim, senda Bahor-yoz bo'ladi,
Doston armonlarim – Osmon armonlarim.

* * *

Cho'lda yolg'izligin sezdim bardoshning,
Yakkaligin sezdim mehr-quyoshning.
Saratonda qolgan bu g'arib boshning
soyaboni yo'qdir. Bir sirni ochdim:

Shoqollar jam bo'lib ulishar ekan
Kunbotar qirmizi rangga belansa.
Bulbul – bulbul ekan yakkaligidan,
yulduzlarga dardin sayrab, elansa.

Tunlardan umid yo'q. Sonming yulduzdan,
Tomchi obihayot tanglayga tommas.
“Ko'rgan kuni qursin ozning, yolg'izning...”
Yakka ot chopganning yulduzi yonmas.

Birlashgan shoqollar yuz yashab yotar,
birlashgan to'tilar ming yashab yotar,
bo'linib ketganlar qum oshab yotar,
bo'linib ketganlar tuz oshab yotar.

Ko'p qarorga keldim – bir iqrori yo'q,
Ming sham – umid yondi. Mingi ham so'ndi.
Boychiborim – Amu kishanlangan. Tek
G'oyibdan qirq chilton kutarman endi...

BERDAQ FARYODI

O'g'ylarning hiylakorligi tufayli qoraqalpoq bahodirlari Begish bilan Mirjiq armon-da ko'z yumdi. O'kinch o'zagini o'rtagan Oydo'sbiy ham ko'p o'tmay halok bo'ldi.

...Ernazar olako'z ham shahid ketdi...

Xalqni orqasidan ergashtiradigan biylari, pahlavonlari har yoqqa tortganligidan, boy-lari o'z bilganidan qolmaganligidan el-yurt-ni oyoqqa turg'izadigan, to'ralik, kadxudolik etadigan kimsa chiqmaganlikdan bo'ldi buning bari... O'shalar tufayli xalq ovorayi-sarson bo'ldi.

Dardlarini ko'ngil tarozusiga solib, yurak bag'ri o'rtanib, kuyib yurgan Berdaq shunday deb ingragan ekan:

Bo'lar elning bolalari
bir-birini "botir" der.
Bo'lmas elning bolalari
bir-birini "xotin" der.
Yog'iy kelsa eliga,
tug'ishganin "yotim" der.
Nomardda nomus bo'lmaydi –
Ochlikka hech chidamas.
Jang maydonda kishnagan,
g'arch-g'urch suvliq tishlagan,

botirning mingan otin yer.
Elning kadxudolari
donolik qilsa boshidan,
el ketmaydi qoshidan.
Yo'ldan toysa sardorlar,
yurtning o'g'ri-sayog'i
chibin joni g'amida
botirin otib sirtidan,
yigitlik orni sotib yer.
Bulut bo'lmay sel bo'lmas,
yomg'ir yog'may ko'l bo'lmas,
ming son biydan ne foyda,
sonming marddan ne foyda,
kadxudo bo'lmay el bo'lmas!..
Xalqim-ay, senga ne bo'ldi?!
Nomusing yovga yem bo'ldi...
Ming tashvish-o'yga bandi,
qayda yurarim bilmay
Berdaq g'amga botib yurar...
Berdaq g'amga botib yurar...

QRIM SO'QMOQLARI

“Lo'lilar ko'chib ketdi Boqchasaroydan” –
Soz – suhbatsiz qoldi pinhon bulog'im.
Tumanli so'qmoqqa termulib qarayman,
Tumanli taqdirning yo'qdir turog'i.

Sel – yomg'ir yuvayotir qadam izlaring,
Sel – yomg'ir o'chirmoqchi yodimda ne bor –
Oh, Qora dengiz kabi teran ko'zlaring!
Qizil, yam-yashil chodir. Kishnagan otlar...

Otlar depsinadilar... Toshidan o't sochar,
Toshlarga izi tushmas yalang oyoqning...
Lo'lilarning galasi qayga oshiqar?!
Lo'lilar, axir, o'troq eli qayoqning?

Savolga javob yo'qdir. Qof tog'larining
Cho'ng haybat, savlati, soyasi – tik jar.
Toshda siynang silkingan quchoqlaringning,
Yalang oyoqlaringning iliqligi bor...

QAR-OQ-ALP-OQ
Eng qadimgi qo'shiq

I

Ko'kda – Tong Ingur¹ ,
Osmonda – Tong Ingur
Yerni yaratdi.

“Yerda yursin,
Yugursin!” – dedi,
Erni yaratdi.

Erga: “Ersan!” – dedi,
Urug'o(luv)chi² ni yaratdi.

Er qara³ alp oq edi.
Urug'o(luv)chi – arig'⁴ oq edi
Er qara alp oq
Arig' oqni oldi.
Arig' oq erdan
Urug' oldi...

To'qqiz oyda ko'z yordi –

¹ Tong Ingir – Tangri, Tanggir, nur va zulumatni yaratuvchi, tong va ingir – tun...

² Urug'o(luv)chi – ayol.

³ Qara – Qora, yirik, katta.

⁴ Arig' – toza, pokiza.

(Tuvuq – kuz oyda. Qavuz yordi):
O'g'il ko'rdi.
O'g'il alp oq edi.
Suyundi.

“Tiri – tirik!” – dedi.
“Tirik – turig” – dedi.
Suyundi.
Oq alp “turk” bo'ldi...

II

Tong Ingir qor yog'dirdi:
Qor oq edi,
Ul oq edi.

Arig' oq Ena ko'rdi:
Qor-oq, ul-oq.
Ulga aytdi:
“Qar-oq sen!” –
Suydi.

Er ota ko'rdi:
Ul – alp, Alp – oq.
Ulga – Alpga aytdi:
“Alp-oq sen!” –
Suydi.

III

Er ota bo'rini sanchdi,
O'g'ilga yurak berdi.
Alp oqqa aytdi:
"Bo'ri bo'l!"

Er ota bo'riqut otdi.
O'g'ilga yurak berdi.
Alp oqqa aytdi:
"Bo'riqut bo'l!"

Er ota Yo'l bo'risin otdi.
Sanchdi.
O'g'ilga yurak berdi.
Alp oqqa aytdi:
"Yo'l bo'risi bo'l!"

Alp oqni Ko'kka –
O't Toshga cho'zdi.
Tong Inur ko'rdi,
Yarlaqadi.

Hayqirdi:
"Sen – Qar Oq Alp Oq!
Sen – Qar Oq Alp Oq!
Sen – Qar Oq Alp Oq!"

IV

Ko'kda – Tong Ingir
Yarlaqadi.
Buyurdi:
“Alp oq! Ayiqni ol!”

Qar Oq Alp Oq
Aygashdi.
Ayiqni oldi.

Er Ota suyundi:
“Oldi! Olti!” – dedi.

Osmonda Tong Inur
Yarlaqadi.
Buyurdi:
“Alp oq! Yilqiga yet!”

Qar Oq Alp Oq
Yugurdi.
Yilqiga yetti.

Arig' oq Ena suyundi:
“Yetti! Yetti!” – dedi.

Qar Oq Alp Oq
Oltida ayiqni oldi.
Yettida yilqiga yetti –
Tong Ingir yarlaqadi...

V

Ko'kda Tong Ingir
Buyurdi:
"Qar Oq Alp Oq!
Qor uy! Qor uy!"

Qar Oq Alp Oq
Qor uyda.
O'ydi.
Enkaydi. Kirdi.

VI

Qora ayg'ar –
Yilqi bo'risi.

Qora ayg'ir qutirdi,
Depsindi.
Tepdi. Tishladi,
To'rt tarxon¹ni o'ldirdi.

Qora ayg'ir –
Yilqi bo'risi.

Qar Oq Alp Oq
Achchiqlandi. O'rtandi:
"Ey, Tong Ingir!

¹ Tarxon – Oqsuyak botirlar.

Sen – Tong Ingir!
Sen yarlaqa!

Qora xanjarni
Qo'limga olay!
Qora ayg'irning
Bo'g'zidan olay!
Qarqiratib
Xanjar solay”.

Qora ayg'irning
Bo'g'zidan oldi.
Qarqiratib
Xanjar soldi...

Oppoq qorni qonga qordi...
Ayg'irning qora quyrug'in qirqdi.
Oq nayzani qonda yuvdi.
Ko'kda toblatdi.
Suvda suvlatdi...

Qizil nayza,
Quyruq-yol
Yalov bo'ldi –
Ko'kda toblatgan
Tug' bo'ldi...

Tong Ingir suyundi:
“Sen Qar Oq Alp Oq!”

Tog'lar,
Cho'llar, Ko'llar suyundi:
"Sen Qar Oq Alp Oq!"

Tong Ingir buyurdi:
"Qar Oq Alp Oq!
Suvlarda suvlan!
O'tlarda toblan!"

Qar Oq Alp Oq
O'tlardan chiqdi,
Suvlarga tushdi...
Suvlardan chiqdi,
O'tlarga tushdi.

Dunyoning poyoni yo'q,
Suvlar ko'p,
O'tlar ko'p...

Tong Ingir suygani
Qar Oq Alp Oq.

MUNDARIJA

Tanimsan, qonimsan, jonimsan, Vatan!

Xalqimning kamoli.....	3
Tilak.....	4
Bir onaning bolalariga.....	5
Biy og'a.....	6
Do'st uchun.....	7
Qalbmida ne sir bor.....	8
Ming manzildan uzoq.....	9
Odam Ato va Momo Havo qissasi.....	10
Inson.....	14
"Qirq yil...".....	17
"Allohu akbar...".....	19
"Bilib-bilmay...".....	20
Izlash.....	21
Sen kelsang Nukusda har kun to'y.....	28
"Sharob ichib...".....	30
"Bu go'zal shaharda...".....	31
To'qqiz so'z.....	32
"Sahar...".....	33
Yomg'ir.....	34
Olcha bog'lar gullagan oqshom.....	35
"Kecha oqshom...".....	36
"Yana mung, sog'inish...".....	37
"Nozik barmoqlaring...".....	38
"Kunbotardan kelgan bulutlar...".....	39
"Dutoring ingrandi...".....	40
"Sevaman!".....	42
Oq baytal.....	43

Tol haqida.....	44
Oh, Xudoy... ..	45
“Jononlarning...”.....	46
“– Allo...”.....	46
“Eh, quyoshga yetmoq mushkul...”.....	47
“Sog‘inchni – cho‘l...”.....	48
“Sel-sebor yomg‘irda...”.....	49
O‘zingga.....	50
Avgust.....	51
“Tonglardan izladim...”.....	52
Xivaning yulduzli, qorli tunlari.....	53
“...Pinhona sevgining sirli sharobi...”.....	54
“Bu – yoki ertakdir...”.....	55
“Aytsam, ado bo‘lmas...”.....	55
“Yetti yil yashadim...”.....	56
“Qahraton yanvarda...”.....	57
“Chanqagan yo‘lovchiman...”.....	57
“Uyingizda bir tup olma bor...”.....	58
“Gunohkorsan...”.....	58
“Bir yuz beshga kirgan momo...”.....	59
Savol.....	60

Bir shuurga sig‘maydi dunyo

“Kul to‘kma...”.....	61
“Balandlikni o‘lchayotirmiz...”.....	62
Raddiya.....	62
Savob ish.....	63
“Yuragingda qopag‘on...”.....	63
Jumboq.....	64
Ot qissasi.....	64

Hayvonot bog'ida.....	65
"Yomg'ir..."	66
"Urushdan qo'rqqanlar..."	67
"Ishlatayotirmiz toshni..."	67
"Ko'ngil daftarimda..."	68
"Vaqtning qayrog'inda..."	68
Futbol to'piga.....	69
Munglasharim, sirlasharim – dutorim.....	70
"Arslon hamla qildi..."	71
"Qushday silkinishga holi qolmagan..."	72
Nasiba.....	72
"Ikki yelkamdagi ikki farishta..."	73
"Og'alar..."	73
"Dunyoning yarmini oldim..."	74
"Toshbo'ron ostida..."	74
"Sonming hikmatlarni..."	75
"Hey, qirq yigitiga ishongan Qoblan..."	76
"Hali ko'p..."	76

Olti oylik yo'lga ketarman

"Men ham baxt qushidan..."	77
"Tog'larga boshimni..."	77
"Yolg'onchi dunyoni tark etib..."	78
"Qabul etgin..."	78
"Qirq kunlik yo'l..."	79
"Oltin va injulik..."	79
"Qadahlar jarangi..."	80
"Yuraging – qop-qora..."	80
"Boshpanam – ko'hna tom..."	81
"Yulduzsiz kechada..."	82

“Yaxshidan – sharofat, yomondan – ofat...”	83
“Qo‘llarimni cho‘zdim...”	84

Assalom, yurakning o‘rtli osmoni

Darvoza oldida.....	85
Dardi hol.....	86
Ming asrlik g‘aflatni silkib tashla.....	89
“Tushimga kiradi...”	89
Vaqtga.....	90
Shoir monologi.....	91
Miltiqsiz mamlakat haqida qo‘shiq.....	95
Yomg‘irlarda cho‘milgan Nukus.....	96
“...Olti og‘a ketib olisga...”	97
“Turkan uyida...”	98
Boboturk so‘zi.....	99
“Qir boshini qor olar...”	100
“Balxan tog‘da bo‘zladim...”	101
“Qadimgi Turkistonning...”	103
“Cho‘llar qo‘zg‘aladi...”	104
“Cho‘lda yolg‘izligin sezdim...”	105
Berdaq faryodi.....	106
Qar-oq-alp-oq.....	109

UO'K: 821.512.133

KBK: 84(50')6

G 34

G 34 BAXTIYOR GENJAMUROD.

Yurakning o'rtli osmoni [matn]. {she'rlar}/

Baxtiyor Genjamurod. – T.: «Adabiyot» nashriyoti,
2021. – 120 b.

Adabiy-badiiy nashr

BAXTIYOR GENJAMUROD

YURAKNING O'RTLII OSMONI

She'rlar va doston

Muharrir: *Dilrabo Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *Farrux Ermatov*

Sahifalovchi: *Azamat Qayumov*

Musahhih: *Mansur Jumayev*

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

«ADABIYOT NASRIYOTI» MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2021.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

 (+98) 127-30-04.

Bosishga 20.09.2021-yilda ruxsat etildi.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 ¹/₃₂.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 3.7.

Adadi: 2000 nusxa. Buyurtma №

“AZMIR NASHR PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.